

---

## Metaphors and similes associated with the concept of the wedding ceremony in the Russian and Uzbek languages

Rakhimov Fayziddin Rustamovich  
[fayziddinrahimov@gmail.com](mailto:fayziddinrahimov@gmail.com)

Researcher,

Department of Uzbek and Foreign Languages  
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

### Annotation

*This study is devoted to a comparative analysis of metaphors and similes associated with the concept of wedding ceremonies in the Russian and Uzbek languages. The research examines the linguocognitive and linguocultural features of the wedding concept and explores the mechanisms through which it is represented in language. Particular attention is paid to metaphorical models and comparative constructions found in proverbs, sayings, phraseological units, folklore texts, and literary works. These linguistic units are analyzed as important means of reflecting cultural values, ethnic traditions, and collective experience. The study identifies the conceptual structure of the wedding concept and reveals its core semantic components, including marriage, family, happiness, prosperity, continuity of generations, and social responsibility. The findings demonstrate that metaphors and similes play a significant role in shaping and transmitting national worldviews and cultural knowledge. Comparative analysis reveals both universal and culture-specific characteristics of wedding-related imagery in Russian and Uzbek linguistic traditions. The results contribute to a deeper understanding of national mentality, cultural identity, and the linguistic worldview of the two peoples. The research findings may be applied in linguocultural studies, cognitive linguistics, comparative linguistics, translation studies, and intercultural communication.*

### Keywords

*Wedding concept, metaphor, simile, linguoculturology, cognitive linguistics, national mentality, paremiology, ethnoculture*

---

## Rus va o'zbek tillarida to'y marosim konsepti bilan bog'liq metafora va o'xshatishlar

Rahimov Fayziddin Rustamovich  
[fayziddinrahimov@gmail.com](mailto:fayziddinrahimov@gmail.com)

Tadqiqotchi,

"O'zbek xorijiy tillar" kafedrası  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

### Annotatsiya

*Mazkur maqola rus va o'zbek tillarida to'y marosimi konsepti bilan bog'liq metafora va o'xshatishlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada to'y konseptining milliy-madaniy mazmuni, uning xalq tafakkurida shakllanishi va til birliklari orqali voqelanish mexanizmlari o'rganiladi. Metafora va o'xshatishlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatları, urf-odatları hamda etnomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalar sifatida tahlil qilinadi. Rus va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklar, frazeologizmlar, folklor namunalari hamda badiiy matnlarda uchraydigan metaforik va o'xshatishli ifodalar asosida "to'y" konseptining konseptual maydoni aniqlangan. Tadqiqot natijalari har ikki xalq madaniyatida nikoh, oila, baxt, farovonlik va avlodlar davomiyligi bilan bog'liq tasavvurlar metaforik modellar orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Shuningdek, to'y konseptining universal va milliy-spetsifik*

*jihatlari aniqlanib, ularning milliy mentalitet hamda madaniy identifikatsiya bilan bog'liqligi yoritiladi. Olingan natijalar lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, paremiologiya va qiyosiy tilshunoslik sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar** *To'y konsepti, metafora, o'xshatish, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, milliy mentalitet, paremiologik birliklar, etnomadaniyat*

---

## **Метафоры и сравнения, связанные с концептом свадебного обряда в русском и узбекском языках**

**Рахимов Файзиддин Рустамович**

[fayziddinrahimov@gmail.com](mailto:fayziddinrahimov@gmail.com)

Исследователь,

Кафедра «Узбекский и иностранные языки»

Ташкентский институт текстильной и

легкой промышленности

**Аннотация** *Данная статья посвящена сравнительному анализу метафор и сравнений, связанных с концептом свадебного обряда в русском и узбекском языках. В работе рассматриваются лингвокогнитивные и лингвокультурологические особенности репрезентации концепта свадьбы, а также способы отражения национального мировоззрения и культурных ценностей в языковых единицах. Особое внимание уделяется метафорическим моделям и сравнительным конструкциям, функционирующим в пословицах, поговорках, фразеологических единицах, фольклорных текстах и художественной литературе. Исследование позволяет выявить основные когнитивные признаки концепта свадьбы, отражающие представления о браке, семье, счастье, благополучии и продолжении рода. Установлено, что метафоры и сравнения выступают важными средствами концептуализации действительности и служат инструментом сохранения культурной памяти народа. Сопоставительный анализ демонстрирует наличие как универсальных, так и национально-специфических особенностей в восприятии свадебного обряда представителями русской и узбекской культур. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию языковой картины мира и национального менталитета, а также имеют теоретическое и практическое значение для лингвокультурологии, когнитивной лингвистики и сравнительного языкознания.*

**Ключевые слова** *Концепт свадьбы, метафора, сравнение, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, национальный менталитет, паремиология, этнокультура*

---

Metafora xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligi, an'analari, urf-odatlari hamda dunyoni idrok etish usulini ifodalovchi murakkab va ko'p qatlamli lingvistik hodisa hisoblanadi. Shu

sababli zamonaviy tilshunoslikda metaforani lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida alohida bir til doirasida yoki turli tillarni qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bo'lgan ilmiy

qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Bunday tadqiqotlar o'zbek va qiyoslanayotgan tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qilib, ularning assotsiativ tafakkurida namoyon bo'ladigan umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

To'y marosim konseptiga oid metafora va o'xshatishlar rus va o'zbek xalqlarining milliy-madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatida lingvokognitiv hamda lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

To'y marosimi insoniyat madaniyatida qadimdan muhim ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida namoyon bo'lib keladi. Bu hodisa nafaqat shaxsiy, balki jamiyat hayotidagi o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Shu sababli, to'y bilan bog'liq til ifodalari, xususan metafora va o'xshatishlar, insonlarning to'y voqeasini qabul qilishi, uni madaniy tizimda qanday kodlashlari va ifodalashlarida katta ahamiyatga ega. Rus va o'zbek tillaridagi to'y marosimi konsepti bilan bog'liq metafora va o'xshatishlarni tahlil qilish, ularning lingvistik, madaniy va semiotik jihatlarini yoritish bugungi kunda tilshunoslikda dolzarbdir.

Til hodisalari aksariyat hollarda o'xshash bo'ladi, ayrim jihatlariga ko'ra tillar o'zaro farqlanadi. Metaforalar nafaqat kundalik hayot, til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir (Лаккофф, Джонсон, 1990; 387-416).

Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganish uchun J. Lakoff va M. Jonsonlar metaforalarni tahlil qilish apparatini taklif qiladi. Chunonchi, metaforalarning kognitiv nazariyasi nima uchun chet tillardagi ba'zi iboralar oson tushuniladi, hatto ular o'zlashtiriladi, boshqalarini esa tushunish qiyin ekanligini izohlab beradi. Metaforik tushunchalar tizimli xarakterga ega. "Metafora faqatgina tilshunoslik sohasi, ya'ni so'zlar doirasi bilangina cheklanib qolmaydi: inson tafakkurining o'zi ham katta darajada metaforikdir. Metaforalar til birliklari sifatida

aynan insonning tushunchalar tizimida metaforalar mavjud bo'lgani uchungina mumkin bo'ladi (Лаккофф, Джонсон, 2004)." Bu fikrlar qiyoslanilayotgan tillar orasidagi kognitiv nomuvofiqlikni aniqlashga yordam beradi. Bunday farqlar tasodifiy bo'lmaydi, ular u yoki bu xalq tomonidan dunyo hodisalarini o'ziga xos tarzda tushunilishidan dalolat beradi (Usmonova, 2014).

O'zbek va rus tillari morfologik jihatdan bir-biriga o'xshamas-da, ularning o'xshash va farqli tomonlari ko'p.

Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, u barcha tilga xosdir. Uning universalligi makon va zamon, til strukturasi hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir (Маслова, 2001; 88-91).

Tadqiqotlarga ko'ra metaforalar ongning universalialari sifatida belgilangan. Zamonaviy psixologlar dunyoni metaforalar asosida ko'rishni insonning genezisi va madaniyati bilan bog'lashga harakat qiladilar (Uzakova, 2018). Metafora yordamida inson abstrakt tushunchalarni yaqin va ko'proq tanish bo'lgan obrazlar orqali anglaydi. To'y marosimi kabi murakkab ijtimoiy va emotsional hodisani ifodalashda metafora va o'xshatishlar juda ko'p qo'llaniladi. Bu esa til orqali madaniyatning eng chuqur qatlamlarini ochib beradi.

N.D. Arutyunovanning qayd qilishicha, "metafora – o'xshatishning qisqargan shaklidir" (Арутюнова, 1990; 5-32).

Keyingi yillarda o'zbek tilshunoslari tomonidan ham metaforaning lingvomadaniy, lisoniy, semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini kengayib bormoqda. Tilshunos olim B. Mengliyevning ta'kidlashicha, o'zbek tilshunosligida metaforalarni o'rganilishi o'zbek tilshunosligining istiqbolli yo'nalishlaridan biri maqomiga ko'tarilgan (Менглиев, 2018).

Professor M. Mirtojievning yozishicha, "bu fikr ham o'rni bilan to'g'ri"dir. "Masalan, o'zbek tilida tokni zararlaydigan oidium

kasalligini kul so'zining hosila ma'nosi ifodalaydi. Uni "kulga o'xshash kasallik" o'xshatish mexanizmining qisqargan shakli deyish juda to'g'ri bo'ladi. Bu o'rinda o'xshatish subyekti tushib qolib, o'xshatish konstruksiyasining faqat kul etaloni butun ma'nosini o'zida saqlagan va o'xshatishning qisqargan shakli – metafora yuzaga kelgan. Ya'ni buni metaforaning ayrim ko'rinishi sifatida ko'rsatish mumkin" (Mиртожиев, 2010).

N. Mahmudov metaforalarni o'xshatishga yaqin hodisa deb hisoblaydi va ularning ham turli – turli turqun va erkin turlari farqlanishini ta'kidlaydi. Ularning turqunlari tilda barqarorlashgan, umumtilga xoslashgan bo'lsa, erkinlari nutqqa xos bo'lib, har bir nutq jarayonida yangidan yaratiladi (Махмудов, 2013).

Tadqiqotchi Z.Hakimova oddiy metaforalardan konseptual metaforalarning farqini ularning konseptni ifodalovchi lingvistik va lingvistik bo'lmagan izohlaridagi ma'no qatlamlari hamda ayrim matnlarda mazkur konseptning strukturasi ochib berish xususiyatlari orqali namoyon bo'lishi bilan izohlaydi (Hakimova, 2022; 1976-1981).

O'zbek madaniyatida to'y marosimi keng ijtimoiy va diniy kontekstga ega bo'lib, uning lingvistik aks etishi turli maqol, ibora va qo'shiqlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "to'y – umrning yangi bahori" metaforasi bahor faslining uyg'onishi va tabiatdagi yangilanish ramzi sifatida o'zbeklarning to'yga munosabatini ifodalaydi (Шербекова, 2022; 251-256). Shuningdek, "ikki yurak birlashuvi" ifodasi sevgi va oila qurish jarayonining asosiy ramzi bo'lib, o'zbek xalq ijodida keng tarqalgan (Uzakova, 2018).

Rus tilida to'y konsepti, avvalo, oilaviy birlik va jamiyatda yangi tizimning boshlanishi sifatida qabul qilinadi. "Семейное гнездо" – oilaning himoya va farovonlik manbai sifatidagi metaforasi rus folklorida chuqur ildiz otgan. Nikohning mustahkamligini ta'kidlovchi "золотая цепь" iborasi nikoh rishtasining sodiqlik va doimiylik tamoyillarini ifodalaydi (Султангареева, 2018).

Bundan tashqari, "свадебный круг" to'y marosimining ijtimoiy birlikni ta'kidlaydigan belgisi bo'lib, nikohning faqat shaxsiy emas, balki jamiyat hayotidagi muhim voqea ekanligini ko'rsatadi.

Turli tillarda ma'no jihatidan bir xil, struktur-grammatik tuzilishi va komponent tarkibi jihatidan ham o'xshash bo'lgan metaforalar mavjud. Masalan "Asal oyi" (*медовый месяц*) o'zbek va rus madaniyatida mavjud tushuncha bo'lib, semantik jihatdan bir xil tushunchani ya'ni nikohdan keyingi hayotning ma'lum bir davrini anglatsa, struktur-grammatik tuzilishi bo'yicha har ikki tilda so'z yasash orqali hosil qilingan murakkab so'z sifatida namoyon bo'lsa-da, o'zbek tilida *ot + ot*, rus tilida esa birinchi komponent sifat maqomida bo'lib, ikkinchi komponent ot hisoblanadi ya'ni *sifat+ot* kabi so'z qo'shilmasidan tashkil topgan. Ta'kidlash joizki, rus tilidagi *медовый месяц* birikmasi, A.K. Birix fikriga ko'ra, fransuz tilidagi *lune de miel* so'zidan kalkalangan bo'lishi mumkin. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko'ra esa, bu ifoda rus xalqiga xos bo'lib, qadimda yosh kelin-kuyovlar nikohdan keyingi bir oy davomida faqat asal bilan mehmon qilinib, ularga quvonch ulashilganiga asoslangan (Бирих, Мокиенко, Степанов, 2005). O'zbek tilida esa bu tushuncha so'nggi o'n yillikda kirib kelgan bo'lib, aksariyat aholi hali bu tushunchani o'z hayot tarzlarida amalga oshirmaydilar. Chunki o'zbeklarda qadimdan odat tusiga aylanib ulgurgan "chilla davri"ga amal qilish hozirgacha kuchli. Ularning madaniyatida yosh kelin-kuyov chilla davrida iloji boricha o'zlarini saqlashlari, shom (quyosh botgan so'nggi vaqt)dan keyin ko'chaga chiqmasligi kerak. Bu ularni turli ins-jinslar, yomon ko'z va suhlardan asraydi deb ishoniladi. Chilla davri qirq kunni o'z ichiga oladi. Shuning uchun "Asal oyi" tushunchasi o'zbeklarda ko'proq yoshlar orasida ishlatiladi. Bundan anglash mumkinki, to'y konseptiga oid metaforalarning ishlatilishi yosh jihatidan ham farqlanadi.

"Er bosh, xotin bo'yin" metaforasi va uning ruscha ekvivalenti *муж – голова, жена – шея*,

*куда шея повернет, туда и голова повернет* ("er – bosh, xotin – bo'yin; qayerga bo'yin burilsa, bosh shunday buriladi") ayol va erkak o'rtasidagi muvozanatli, lekin nozik ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu metaforik birlik madaniy kod sifatida xizmat qiladi. Har ikki tilda ham erkak ustun bo'lib ko'rinadi, ammo ayolning bevosita ta'siri borligi seziladi. Bu iboralarning "yashirin semantikasi" aynan shunda.

Har ikkala madaniyatda ham "to'y" konsepti oila va jamiyat uchun muhim voqea sifatida tushuniladi. To'y marosimlari madaniy va an'anaviy urf-odatlar bilan boyitilgan va bu marosimlar har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Rus madaniyatida to'y marosimi bilan bog'liq ba'zi metaforalar nikohning tuzilishi va ikki yoshning birgalikdagi yashash tarzini turli ramziy ma'nolarda ifodalaydi:

*"Союз двух сердец"* – Bu metafora ikki yurakning ittifoqini tasvirlaydi, ya'ni kelin va kuyovning bir-birlariga bo'lgan muhabbati va birlashishi.

*"Семейный очаг"* – Bu metafora yangi oila qurilishining boshlanishini va oila o'chog'ining yoqilishi kabi issiqlik va muqaddaslikni bildiradi.

*"Брачный корабль"* – Bu metafora nikohni dengiz kemasiga o'xshatadi, ya'ni kelin va kuyovning hayot dengizida birga sayohat qilishlari.

Ushbu metaforalar va o'xshatishlar rus to'y marosimining turli jihatlarini aks ettiradi va uning go'zalligi, teran mazmunini ko'rsatadi.

Har bir etnosning dunyoqarashi uning urf-odatlari va marosimlarida namoyon bo'ladi; aynan shu madaniy materialda xalqning ma'naviy madaniyatining mohiyati, tarixiy taraqqiyotining turli davrlaridagi dunyoqarash his-tuyg'ulari aks etadi. Bu esa tilga, xususan, leksika va frazeologiyaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

O'zbeklarda kelinni oyga, toyga, gulga, lochinga, suxsurga, sunbul, sarv va boshqa predmetlarga qiyoslash yo'li bilan sodir bo'lgan metafora ijobiy ekspressivlik bo'yoqni yuzaga

keltiradi. Bunday metaforalar ayniqsa to'y qo'shiqlarida ishlatilib masalan, *Qizginamning bo'ylari sarvi sunbul, yor-yor*. Bu yerda kelinning qaddi-qomati kelishganligi, hushqadligi sarvi sunbul birikmasi orqali ifodalangan. Aslida sarv janub mamlakatlarida o'sadigan igna bargli tik daraxt (O'zTIL, 1981; 22). Sunbul – piyozgullar oilasiga mansub lola bargiga o'xshash uzun bargli o'tsimon manzarali o'simlik va uning g'uj bo'lib ochiladigan xushbo'y, chiroyli guli (O'zTIL, 1981; 84).

Ruslarda kelin ko'pincha xalq og'zaki ijodida, maqollarda, ertaklarda yoki adabiyotda turli metaforik obrazlarga o'xshatiladi. Bu obrazlar ko'pincha kelinning jamiyatdagi yangi o'rni, sinovlari va o'zgaruvchan roli bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: Yangi kelin o'zga oilada begona, boshqalar kabi emas shuning uchun ham u hammadan ajralib turadi. Shuning uchun ham uni *"Белая ворона"* "oq qarg'a" ga mengzashadi. *"Пока свекровь не приласкает – невестке жить как белой вороне среди ворон."* (*Qaynonasi mehr bermaguncha – kelinning holi qarg'alar orasidagi oq qarg'adek bo'ladi.*)

*"Невестка – как молодая рожь: ветер дунет – гнётся."* (Kelin – yangi ungan bug'doy: shamol essa – darrov egiladi). Bunda kelinga yosh, hayotiy tajribasiz sifatida qaraladi.

Keltirilgan misollardan aniqki, o'zbek madaniyatida yosh kelinga nisbatan metaforik birliklar ijobiy bo'lsa rus madaniyatida kelinga nisbatan zaiflik belgisi sifatida qarash kuchli.

Rus va o'zbek tillaridagi to'y konseptiga oid metaforalarning asosiy umumiyligi shundaki, ular yangi boshlanish, bog'lanish va baxt ramzlarini aks ettiradi. Farq esa, madaniy va ijtimoiy strukturalardan kelib chiqadi: o'zbek tilida diniy va tabiat bilan bog'liq obrazlar ko'proq bo'lsa, rus tilida ijtimoiy birlik va oilaviy mustahkamlik ramzlari ustunlik qiladi.

O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda ham ish abadiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi,

ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.

Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turg'un o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. Masalan, aksariyat tillarda tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: *tulkiday ayyor, xumpay kak luca (ruscha)*. Yoki o'zbek tilining o'ziga xos o'xshatishlari sifatida *qo'ydek yuvosh, arvohdai ozg'in, moldek ovqat yeydi* vah.k.ni ko'rsatish mumkin.

Mazkur o'xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan. Etalonlar dunyoning obrazli qiyoslanishidir. Tilda etalonlar ko'pincha turg'un qiyoslamalar ko'rinishida mavjud bo'ladi, shunga qaramay, insonning dunyoni taqqoslashdagi har qanday tasavvuri ham etalon bo'lishi mumkin.

Xullas, o'xshatish etalonlari predmetlar, ob'yektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir. Masalan oy o'xshatish etalonini olib ko'raylik. O'zbek to'ylarida kelinga nisbatan "oyday" o'xshatish etaloni juda keng qo'llanadi. Bu o'xshatish etalonini semantik va lingvokulturologik jihatdan quyidagicha izohlash mumkin:

1. Chiroyli, go'zal. Asosan, ayollar haqida (*Kelinning oydek yuzini ko'rish uchun butun mahalla to'yimizga tashrif buyurishdi*).
2. Porlamoq, balqmoq, ajralib turmoq, kuchaymoq (*Oydek porlab tursin go'zal yuzingiz* (kelinga tilak)!
3. To'lmoq, yanada go'zallashmoq (*Kelinning libosi, yuzidagi tabassumi bilan oydek to'lib, butun to'y mehmonlarini maftun etdi*).
4. Ravshan, ayon, ma'lum, shubhaga o'rin qoldirmaydigan darajada aniq bilingan (*Buncha mo'joradan so'ng to'y bo'lmasligi oydek ravshan*).

Bundan tashqari, ayolning go'zalligini ta'kidlaydigan *o'n to'rt kunlik oyday* turg'un o'xshatishi ham ko'p uchraydi. Ammo rus lingvomadaniyatida oy o'xshatish etalonining o'zbek tilidagi mazkur to'rt mazmunidan birortasi ham mavjud emas, bu lingvomadaniyatda oy obrazi ko'proq g'amgin, mayus, sovuq manzara bilan bog'lanadi. Shu holat rus mental tasavvurida an'anaga kirgan. Ruslardagi *"без женщины мужчина – что вода без плотины"* (ayolsiz erkak – to'g'oni yo'q suvdek) o'xshatishi o'zbek tilida *"ayolsiz erkak yo'nalishi yo'q daryo kabidir"* tarzida ifodalanadi. Har ikkala holatda ham umumiy mazmun *"erkak kishiga ayolsiz (xotinsiz) og'ir"* degani bo'lsa-da, bu o'xshatish o'ziga xos qiyoslash uslubi bilan ajralib turadi. O'zbek va rus tillaridagi ushbu o'xshatishda ikkita umumiy komponent mavjud: "erkak" va "мужчина", "-siz" (bo'lishsizlik ma'nosidagi qo'shimcha) va "без". Mazmuniy moslik bu frazeologizmlarni funksional va semantik jihatdan o'xshash birliklar sifatida ko'rib chiqishga asos beradi.

Shuningdek rus madaniyatida kelin va kuyovning birgalikda yashashi o'zbeklardagi kabi bir xil o'xshatish etaloniga ega. Masalan:

*"Как две половинки одного целого"* (*go'yo bir butunning ikki yarmi kabi*). Bu o'xshatish kelin va kuyovning bir butunning ikki yarmi ekanligini, ya'ni ular bir-birlarini to'ldiradigan ekanliklarini ifodalaydi.

*"Как птицы в одном гнезде"* (*bitta inda yashayotgan qushlar kabi*). Bu o'xshatish ikki kishining bir uyada yashashlari va birgalikda baxtli bo'lishlari tasvirlanadi.

*"Как две капли воды"* (*Go'yo suvning ikki tomchisi kabi*). Bu o'xshatish kelin va kuyovning o'xshashligini va bir-birlariga juda yaqin ekanliklarini bildiradi.

O'zbek madaniyatida qiz va yigit birinchi uchrashuvga chiqqanda, Yigit yumshoq tabiatli, samimiy bo'lsa, qizdan bo'lg'usi kuyov haqida so'rganlarga *qo'yday yuvosh ekan* degan javobni beradi. Bu turg'un o'xshatish bo'lib, o'zbeklarning milliy-madaniy qarashi tasavvuri aks etgan. Ammo bunday o'xshatish rus madaniyatida ham mavjud bo'lsa-da, ularda

qo'y yuvvoshlik emas, balki qo'rqqoqlik belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, har ikki madaniyatda o'ziga xos tarixiy yoki afsonaviy qahramonlari borki, o'zbek madaniyatida kuyovni *Alpomishdek kuyov* desa, ruslarda "*Как богатырь*" bu rus xalq eposlaridagi qahramonlar: Ilya Muromets, Dobrynya Nikitich, Alyosha Popovich kabi jasur va kuchli jangchilarga nisbatan aytiladi. Shuning uchun kuyovni "*Как богатырь*" – ya'ni "bogatyrddek" deb ta'riflashadi. Bu kuchli, himoyachi, mard erkak degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun har bir xalqning tarixiy shaxs, ertak qahramonlari shu xalq madaniyatida ma'lum bir ma'no anglatadi va shu xalqning butun xarakter-xususiyatini o'zida jamlaydi.

O'zbek tilida o'xshatishlar to'y marosim qo'shiqlarida *-day*, *-dek* affiksli so'zlari va *xuddi*, *misli*, *kabi* so'zlari bilan yuzaga kelgan bo'lib, ular quyidagi semantik xususiyatlarni ifodalab kelgan.

- predmetning belgisini (*Qoshi qaldirg'och qanotidek*);
- harakat belgisini (*Bizlar yor-yor aytaylik birday bo'lib, yor-yor*);
- xoslik belgisini (*kelinoyim so'rasangiz oq paxtaday yor-yor*).

Rus tilida esa bu kabi o'xshatishlar ikki asosiy lingvistik qatlamda o'z ifodasini topadi:

1. **Affiksoïdlar.** O'zbek tilidagi *"-day/-dek"* rus tilida *-подобный*, *- типичный*, *- ный* kabi affiksoïdlar bilan ifodalanadi. Masalan: "*Невеста ангельской красоты*", "*Юноша львиного сердца*". Bu affiksoïdlar qiyoslash yoki tavsiflash vazifasini bajaradi.
2. **Союзы-сравнения** (Qiyoslovchi bog'lovchilar): "*как*", "*словно*",

*"будто"*, *"точно"* kabi bog'lovchilar rus folklor qo'shiqlarida keng qo'llanadi: "*Она пела, как птица*", "*Он красив, будто солнце*". Bu birliklar rus xalq qo'shiqlarida, ayniqsa to'y, unashtirish yoki nikoh marosimlari doirasida obrazli va poetik nutqni tashkil etadi.

Har ikki madaniyatda ushbu o'xshatishlar quyidagi semantik guruhlarga bo'linadi:

1. **Vizual o'xshashlik:** tashqi ko'rinish orqali taqqoslash (*gul*, *yulduz*, *oy*);
2. **Emotsional o'xshashlik:** his-tuyg'ularni bildiruvchi obrazlar (*ko'ngil kabi sof*, *bolalardek beg'ubor*);
3. **Qahramonlik yoki ijtimoiy maqom ifodasi:** jasorat yoki muqaddaslik obrazlari orqali (*asrori*, *shamsdek porloq*).

Umuman, o'xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish muhimki, metafora va o'xshatishlar to'y marosimining til va madaniyat orqali kodlashida muhim rol o'ynaydi. Ular jamiyatning mentaliteti, qadriyatlar tizimi va tarixiy an'alarini aks ettiradi. Rus va o'zbek to'ylarida qo'llaniladigan metafora va o'xshatishlar oilaning barqarorligi, ijtimoiy birlik va avlod uzluksizligi kabi tushunchalarni aks ettiradi. Bu metafora va o'xshatishlar to'y marosimini nafaqat shaxsiy, balki kengroq ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Umuman olganda, ular tilning madaniy kodlash funksiyasini ochib beradi, inson tafakkurining madaniy jihatlarini o'zlarida aks ettiradi.

## References:

1. Арутюнова, Н. Д. (1990). Метафора и дискурс. В *Теория метафоры*. 5–32. Прогресс.
2. Бирих, А. К., Мокиенко, В. М., & Степанова, Л. И. (2005). *Русская фразеология: Историко-этимологический словарь: Около 6000 фразеологизмов* (3-е изд., испр. и доп.). Астрель; АСТ; Люкс.

3. Hakimova, Z. T. (2022). Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar. *Science and Education*, 3(5), 1976–1981. <http://www.openscience.uz>
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1990). Метафоры, которыми мы живем (Н. В. Перцов, пер.). В *Теория метафоры*. 387–416. Прогресс. (Оригинальная работа опубликована в 1980 г.)
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (2004). *Метафоры, которыми мы живём*. Едиториал УРСС.
6. Маслова, В. А. (2001). *Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений*. 88–91. Академия.
7. Менглиев, Б. (2018). *Ҳозирги ўзбек тили*. Тафаккур Бўстони.
8. Миртожиев, М. (2010). *Ўзбек тили семасиологияси* (с. 95). Мумтоз сўз.
9. Маҳмудов, Н., & Худойберганова, Д. (2013). *Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати*. Маънавият.
10. *O'zbek tilining izohli lug'ati* (Vol. 1). (1981). Rus tili.
11. *O'zbek tilining izohli lug'ati* (Vol. 1). (1981). Rus tili.
12. Султангареева, Р. А. (2018). *Башкирский фольклор: семантика, функции и традиции* (Т. 1: Миф. Обряд. Эпос. Танец. Сказительство. Шаманский, религиозный, музыкальный фольклор). Башкирская энциклопедия.
13. Usmonova, S. (2014). *Lingvokulturologiya*. Universitet.
14. Usmonova, S. (2019). *Lingvokulturologiya: Darslik*. Toshkent.
15. Uzakova, L. (2018). *Linguistic-cultural study of lexical units related to the word "wedding" in Uzbek and English languages*.
16. Шербекова, Г. Я. (2022). Бухоро никоҳ тўйи қўшиқларининг тўпланиши ва ўрганилишига доир баъзи мулоҳазалар. *Scientific Progress*, 3(2), 251–256.